XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-133-7-102-K/25 Paxtachi tumani

2026-yilda Paxtachi tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445 va 452-moddalariga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2026-yil uchun Paxtachi tumani hududida suv solig‘i stavkasi 1-ilovaga hamda yer qa’ridan foydalanilganlik uchun soliq stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Eshonqulov), tuman Soliq inspeksiyasi

(A.G‘iyasov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XUSHBAKOV KAYUM NORBEKOVICH**

Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-133-7-102-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Paxtachi tumanida O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2026-yilda Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar
(suv hajmiga nisbatan)

Yer usti suv manbasi			**Yer osti suv manbasi**		
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar**	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish**
1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-133-7-102-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Paxtachi tumanida O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2026-yilda Yer qa’ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh-dan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyos-simon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar
1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,1	1,1